**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**ILYOS ARABOV**

# AN’ANAVIY CHOLG‘U IJROCHILIGI (DUTOR )

*Oliy ta’lim muassasalari uchun*
*o‘quv qo‘llanma*

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi: (an’anaviy cholg‘u ijrochiligi)

Toshkent
2018

*Mas'ul muharrir:*
**Malikaxon ZIYAEVA** – O'zbekiston davlat konservatoriyasi dosenti
-------------------

*Taqrizchilar:*
**Rifatilla QOSIMOV** – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori
**Abdulla UMAROV** – R.Glier nomidagi RIMAL professori
----------------------------------

Mazkur o'quv qo'llanma musiqiy san'at yo'nalishidagi OTMlarda saboq olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma fan dasturi asosida yaratilgan bo'lib, unda talabalarning jo'rnavozlik, ansambl bo'lib ijro etishlariga oid asosiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата в высших учебных заведениях.

Учебное пособие создано в соответствии с учебной программой данного предмета и в ней изложены основные сведения, касаюhиеся музыкалного сопровождения и ансамблевого исполнителства.

This teaching literature is meant for the students of Baccalaureate course of the High Educational Institutions.

The teaching manual has been created according to the program of subject of "Ensemble class" and the main information's have been expounded for the students, who play the instruments, as an accompanist and ensemble performer.

# KIRISH

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

An’anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda mehnatkashlar ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi.

Har bir xalq o‘z hayoti, ma’naviyati va an’anasi asosida o‘z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg‘ular yaratgan. O‘zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an’analarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli cholg‘usidir. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakllanganligi har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o‘ziga xos o‘rin topgan, xalq orasida eng go‘zal ijro namunalari yuzaga kelgan.

Qariyib 2000 yillik ko‘hna tarixga ega bo‘lgan ushbu sohada Borbad, Abu Nasr Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog‘iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan siymolar ijod qildi. Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi.

O‘rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo‘yicha ko‘proq Abu Nasr Farobiyning «Musiqaga oid katta kitob», «Musiqa haqida so‘z», Abu Ali Ibn Sinoning «Kitab ash-shifa» asarlarida musiqa ilmi haqidagi ta’rifni asos qilib oladilar.

O‘zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o‘zining «Xazoyin ul-maoniy», «Holati Pahlavon Mahmud», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarida o‘zidan oldin o‘tgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqa ilmi, bastakorlik an’analarini davom ettirib, boyitdi.

Musiqa san’ati insoniyatning ma’naviy boyligi, asriy qadriyatlarini namoyon etuvchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Xususan, milliy musiqiy cholg‘ularda ham har bir xalqning uzoq yillar mobaynida shakllanib kelgan rang-barang an’analari o‘z aksini topadi. Shunday ekan cholg‘ularni insoniyat ma’naviyatining bir bo‘lagi sifatida o‘rganib, tadqiq va targ‘ib etish eng dolzarb masalalardan biri desak xato bo‘lmaydi. Tanbur, dutor, chang, nay, gijjak, rubob kabi xilma-xil milliy cholg‘ularimiz o‘ziga xos tuzilish va tarixga ega bo‘lib, ayniqsa, bu cholg‘ular orasida dutor cholg‘usi nozik va mayin nola va qochirimlarga ega ekanligi hamda xonaki sharoitlarda ijro etishga moyilligi bilan ajralib turadi.

Dutor ijrochiligida zabardast ustozlar ko‘p o‘tgan. Hammalari ham musiqa madaniyatida benazir iz qoldirgan. Ular o`z ijrolari bilan el qalbidan joy olgan va kelajak avlodga ijro xazinalaridan meros qoldirishgan. Faxriddin Sodiqov, Turg`un Alimatov, Mahmud Yunusov, Zohidjon Obidov, Komiljon Jabborov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Nurmuhammad Boltaev, Orif Qosimov, G`ulomjon Qo`chqorov, Abdurahim Hamidov shular jumlasidandir.

Ulkan iste’dod egalari bo‘lgan bu ustoz bastakorlar o‘z ijodiy faoliyatlari bilan Borbad, Forobiy, Ibn Sino , Hoja Abdulqodir Marog‘iy asos solgan o‘zbek an’anaviy musiqa merosining nodir namunalarini targ‘ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy musiqa merosi masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g`arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashildi. Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan bir xos bo‘lgan sabablar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi. Zotan, o‘zbek milliy bastakorlik ijodiyoti to‘grisida shu payitgacha ijobiy so‘zlar aytilmasdi, uning tarixi, ijodkorlik qonuniyatlari, rivojlanish xususiyatlari deyarli o‘rganilgani yo‘q.

Bu ustozlar ijodlari bilan biz yoshlarni tanishtirgan va saboq bergan ustozlarimizga tashakkur bildiramiz. Buxoro davlat san`at bilim yurtida o`qigan kezlarda ustoz Turg`un Alimatov ijro uslublariga qiziqishimiz ortgan. Ustoz dutorda chalgan kuylarni o`rganishga harakat qildik. Ustozim Yoqubova Matluba Kalomovnadan o`tgan ustozlar ijro uslublarini o`zlashtirdik. 2002-yil O`zbekiston davlat konservatoriyasi “An`anaviy ijrochilik kafedrasi” O`zbekistonda xizmat

ko`rsatgan artist, dosent Malika Ziyaeva sinflariga dutor mutaxassisligi bo`yicha qabul qilindim. O`qish davomida ustozimdan ko`pgina ijro uslublar bilan tanishishga muvaffaq bo`ldim. Qolaversa ustozim Malika Ziyaevadan Faxriddin Sodiqov ijro uslublarini mukammal egallashga harakat qildim. Bundan tashqari vohalarga mansub ijro uslublari Xorazm, Farg`ona – Toshkent, va Qo`qon dutor ijrochilik maktablarini ham egalladim. Bundan tashqari Shashmaqomning Mushkulot hamda Nasr bo`limlaridan kuy va ashulalarni dutorga moslab konsertlarda, radio – telavideniya orqali oltin fondga qoldirishga muyassar bo`ldik.

Shu sabab mualluf ustozlaridan o`rgangan kuy va ashulalarni ushbu o`quv qo`llanmaga notalashtirib joylashtirdi.

An’anaviy cholg‘u musiqasining bugungi o‘ziga xos ijodiy xususiyatlari yangi uslublarining paydo bo‘lishi, inson qalbiga zavq bag‘ishlash yo‘lidagi izlanishlar ijodkorlik san’atimiz muhitini boyitmoqda. Ayniqsa an`anaviy kasbiy musiqa janri bo`lgan Shashmaqom, Xorazm olti yarim maqomi hamda Farg`ona – Toshkent maqom yollarini alohida ta`kidlash lozimdir. Bu ulkan musiqiy me`ros O`zbek xalqining ma`naviy boyliklaridan biri bo`lib bizga ajdodlardan ustoz shogird an`analari orqali etib kelgan. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan Maqom san`atini rivojlantirishda bir qancha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san`ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o`zlikni anglash tuyg`usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish masalalari maqsad qilib qo`yilgan. Haqiqatdan ham yosh avlod tarbiyasida maqomlarimizning, mumtoz musiqaning roli juda katta. Musiqaga oshufta qalbdan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Bu fanda isbotini topgan. Yana qarorda mumtoz musiqa me`rosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan. Sha borada ushbu o`quv qo`llanmada o`zbek xalq kuylari, bundan oldin notaga tushirilmagan namnalar, shashmaqomning cholg`u bo`limidagi ba`zi-bir kuylar va nasr bo`limining ba`zi turkumlari dutor cholg`usiga moslab notalashtirildi.

## DUTOR IJROCHILIK USLUBLARI TARIXIGA BIR NAZAR

Dutor O‘rta Osiyoda keng ommallashgan cholg‘ularidan biri. U ijrochilik amaliyotida keng qo‘llanib kelingan. Ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Husayniyning “Qonuni ilm va amali musiqiy” nomli risolasida ta’riflangan. Amaliyotda dutorning bir qator turlari mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Lekin, risolada ta’riflangan dutorning barcha xususiyatlari (dastasi, dastaga bog‘langan pardalar, torlar va sozlanishlar) hozirgi amaldagi cholg‘uga ko‘p jihatdan mosligini e’tirof etish lozim.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g‘ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doyra kabi har tomonlama mukammal sozlar mavjud. Har bir cholg‘u o‘zining shakllanish va takomillashish tarixiga ega. Takomillashish jarayonlari cholg‘ularning shakli, ovozi, ovoz diapazoni kabi jihatlariga asoslangan. Dutor, manbalarda yozilishiga ko‘ra shakliy jihatdan o‘zgarmagan. Dutor cholg‘ular orasida o‘zining tabiati, nozikligi, sirli sadosi bilan ajralib turgan. Cholg‘u sadosining unchalik keskin bo‘lmaganligi, mayin va (kamer) xonaki ovozga egaligi bunga asosiy sabab bo‘lgan. Bu jihatlar ayni paytda ham saqlanib qolgan. Azal-azaldan dutor ko‘proq ayollar ijro amaliyotida kengroq ommalashganining asosiy sabablaridan biri ham ana shunda.

O‘tmish davomida dutor ijrochiligining turli yo‘nalishlari yuzaga kelgan. Xalq ijodiyoti amaliyotida, yakkanavoz va jo‘rnavoz soz, hattoki an’anaviy uslubda o‘zining maxsus maqom yo‘llarini yaratishiga ham sabab bo‘lgan. Bunga yorqin misol Xorazm dutor maqomlaridir.

Demak, dutor ijrochiligi o‘zining serqirraligi bilan ahamiyatli. XX asrga kelib dutor ijrochiligi professional darajada rivojini topdi. Yakka soz ijrochiligi, ayniqsa, ustozona uslubda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Bu albatta, dutorning o‘tmish ijrochilik amaliyotida erishgan ijro imkoniyatlari, xalq orasida dutor ijro an’analarini rasm qilgan mohir ijrochilar ijodi bilan baholanadi. Natijada dutor ijrochiligida voha va shaxsiy ijro uslublari shakllandi va ommalashdi. Bunday ijro

uslublarining paydo bo‘lishi sozning inson tabiati qirralarini yanada kengroq ochib berishga imkon yaratdi.

Dutor ijrochiligining keng ommalashuvi ijrochining samarali mehnati natijasidir. Shinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo‘lib bordilar. Uslublar vaqt o‘tib o‘z-o‘zidan ijro maktablariga aylanadi. Xorazm dutor ijrochiligi maktabi yoki Qo‘qon ijro maktabi ana shunday an’analar asosida yuzaga kelganligi begumon.

Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg‘u yo‘llarining bir qator tomonlari mavjud bo‘lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo‘lgan. Birinchidan ijro repertuari, ya’ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o‘ziga xos xususiyatlardir. Ushbu prinsiplarsiz ijrochilikni maktab darjasida tasavvur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi.

Xorazm dutor ijrochilik maktabida yuqorida eslatib o‘tilgan barcha prinsiplar amaliyotda shakllanganining guvohi bo‘lamiz. Amaliyotda yuzaga kelgan dutor maqomlari esa, «Shashmaqom» yoki «Xorazm olti yarim maqomlari» kabi ichki murakkab funksional tartiblardan farqliroq, sodda va maqomlar yo‘liga mansub holda shakllanganligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi.

Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalar o‘zlarining «Xorazm musiqiy tarixchasi» kitoblarida «Dutor maqomlari deganda bir tarafdan mumtoz musiqa, ikkinchi tomondan el kuylari deyiladigan ma’muliy (amaldagi) butun boshli asarlar tushuniladi» deya ta’kidlaydilar.[1] Bundan adabiyotlarda xalq orasida mashhurlikka erishgan va mumtoz yo‘lda yaratilgan alohida musiqiy namunalar dutor maqomlari deyilgan degan fikrga kelish mumkin.

Dutor sozi quyidagicha ta’riflangan o‘rinlar mavjud: – «Dutor sozi Xorazm o‘lkasida xalq orasida tanburdan ortiqmoch suratda tarqalgan bo‘lsada, tanbur qadar tartibda intizom ostina olinmagandur. Garchi dutor nag‘malari tanbur

[1] Mulla Bekjon Raxmon o‘g‘li Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi (ikkinchi nashr). –T.: Yozuvchi, 1998. – 47 b.

nag'malari qadar bo'lsada, tanburga berilgan ahamiyatni dutor nag'malarina bera olmaganlar. Chunki, chertilish yoqidan qaraganda tanburdan qiyinroqdir».[2]

Bu fikr esa dutor maqom ijrochiligida tanburchalik mohir bo'lmasada, murakkab va o'ziga xos uslubga ega bo'lganini bayon etadi. Shu bois bo'lsa kerak, Xorazm dutor ijrochilik uslubi zarblarga boy, rang-barang va eng muhimi Xorazm vohasiga xos «shovqinli» ijro uslubi sifatida alohida qayd etiladi. Bu ijro o'ng qo'l harakatlarini cholg'u qopqog'iga ishqalab chalish bilan xarakterlanadi. Ushbu vohaning Matkarim Hofiz, Jumaniyoz ota Hayitboyev, Otajon Qo'shmo, Sharif Botir, Nurmuhammad Boltayev, Yusuf Jabbor kabi mashhur dutorchilarining ijro yo'llarini alohida e'tirof etish o'rinlidir. Ayni paytda bu ijro yo'llari yoshlar tomonidan munosib davom ettirilishi muhimdir.

Xorazm dutor ijrochilik uslubiga nisbatan Samarqand ijro yo'li o'zgacha ekanligi Abdurauf Fitrat tomonidan ham qayd etilgan. U «Bu kunlarda bizning eng mashhur dutorchimiz samarqandlik Hoji Abdulaziz qo'lini taxtaga urmay chalg'oni uchun uning dutori havas bilan tinglanadir»[3], – deb u samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulovning dutor ijrochiligida mohir ekanligi va nozik bir uslub egasi ekanligiga e'tibor berib o'tadi.

Farg'ona-Toshkent hududining dutor ijrochilik uslublari ham juda rang-barang ekanligini aytib o'tish lozim. Chunki, bu hududda ijro uslublari ko'p. Faqat Qo'qon dutor ijrochilik maktabining o'zigina, o'ziga xos an'analar bilan sug'orilgan. Bu an'analarni birgina «Qo'qoncha»[4] asarida ham ko'rish mumkin. Dutorning shaxdam shiddatli talqini, zarblarining rang-barangligi, chap va o'ng qo'llar mohirligi va jozibaliligi uslub ijrochiligining mag'zi hisoblanadi.

Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida alohida ijro uslublarning ahamiyati katta. Shuning uchun Farg'ona-Toshkent vohasida biz ko'pgina shaxsiy dutor ijrochilik uslublari shakllanganining guvohi bo'lamiz.

Musiqa ijrochiligi amaliyotida dutor cholg'u ijrosini me'yoriga yetkazib, ustozlik darajasida faoliyat olib borgan bir talay mashhur san'atkorlar o'tgan.

---

[2] A.Fitrat. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (ikkinchi nashr). –T.: «Fan», 1993. –29-bet.
[3] Qarang: A.Fitrat. O'sha asar. –28-29-betlar.
[4] «Qo'qoncha» – kuy nomi, amaliyotda «Qo'qon tanovari» deb ham yuritiladi.

Zohidjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, G‘ulom Qo‘chqorov kabi ustoz san’atkorlar shular jumlasidandir.

XX asrda dutor ijrochiligining rivoji aynan mana shu ustozlarning samarali ijodiy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Lekin, har bir san’atkorning dutor ijrochiligida o‘ziga xos chertish yoki chalish usuli bo‘lgan. Aynan shu jihat ularning mohir ekanliklariga asos bo‘lgan. Bu dutor ijro etganda chap yoki o‘ng qo‘l harakatlarida o‘z ifodasini topgan. Ijro amaliyotida ham shu sozanda nomi bilan muhrlanib qolgan (bu albatta kelajak avlodlar uchun o‘rnak bo‘lishi yoki eslab qolish, o‘rganishda osonlik yaratish uchun xizmat qiladi).

Jumladan, ana shundaylardan biri o‘z zamonasida mohir sozandalik darajasiga erishgan, dutor ijrosi bilan elga tanilgan Zohidjon Obidovdir.

Zohidjon Obidov ijrochi bo‘lish bilan birga ijod bilan ham shug‘ullangan. Shu holat uning dutor ijrochiligida turli metroritmik usullarni izlashiga sabab bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki, Zohidjon Obidovning dutor ijrochilik uslublarida o‘ng qo‘l harakati alohida ahamiyat kasb etgan.

Sozanda shaxsiy ijro uslubining negizi ham uning o‘ng qo‘li harakati bilan bog‘liq. Qo‘l barmoqlari va beriladigan zarblarning turli ko‘rinish va shakllari hamda urg‘ularni rang barang ishlatishda, teskari zarblarni o‘rniga qo‘yib aks ettirish uslubning zaminidir. Zohidjon Obidov asosiy diqqatni o‘ng qo‘lga qaratib, kuyni rang-barang usullar va zarblar bilan bezaydi. Asarga joziba baxsh etuvchi harakatlarni ko‘paytiradi. Lekin, u chap qo‘lga e’tiborsiz bo‘lgan. Bu uslub ham ijrochilikning o‘ziga xos tomonlari sifatida amaliyotda muhrlangan.

Zohidjon Obidov uslubiga aks xarakterga ega bo‘lgan, va el orasida mashhurlikka erishganlardan, taniqli dutorchi sozanda, ustoz san’atkor Mahmud Yunusovdir. Mahmud Yunusov dutor ijrochiligida o‘ziga xos uslub orqali tanilgan. Bu uslub asosida o‘ng qo‘l harakatining to‘g‘riligi, bir xillik xususiyat kasb etishi, elastik harakatlardan va mayda zarblardan mustasno ekanligi turadi. Lekin uslubning muvaffaqiyati va xalqqa manzur bo‘lishi chap qo‘l ijro jozibasida mujassamlashgan.

Mahmud Yunusov ijroda chap qo‘l bilan o‘zbek milliy sayqal va qochirim-bezaklarni juda mohirona ishlata olgan. Bu esa dutordan taralayotgan ohangning serjilo va sersayqal yangrashiga zamin bo‘lgan.

Xalq orasida, ayniqsa, dutorni o‘rganish mezonlarida ijrochilikka xos texnik jihatlarni yaxshi o‘zlashtirish doimo samaraliligi bilan alohida ahamiyatli bo‘lgan.

XX asr dutor ijrochiligi ham xalq cholg‘ularining akademik ijro uslubi bilan tutashganligini qayd etish lozimdir. Chunki, bu uslub dutor oilasi cholg‘ulari rivojini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Dutorning texnik jihatdan mohir ijrosiga asoslangan uslub mashhur ustoz dutorchi Orif Qosimov nomi bilan bog‘liq.

Dutor ijrochiligining an’anaviy yo‘nalishida o‘ziga xos jozibali uslub in’om etgan ikki zabardast ustozlarni e’tirof etish joiz. Bular xalq ardoqlagan san’atkorlar Faxriddin Sodiqov va Turg‘un Alimatovlardir.

XX asrning 30-yillaridan o‘zbek musiqa san’atida, ayniqsa ijod va ijroda yangi-yangi qarashlar yuzaga kela boshlagan. Musiqaning sehri va jozibasi yanada teranroq va zamona ruhi bilan uyg‘unlikda aks ettirila boshlangan.

Faxriddin Sodiqov o‘zining ko‘p yillik ijodiy va ijrochilik faoliyatida o‘ziga xos dutor ijro uslubini kelajak avlod uchun taqdim etgan.

Turg‘un Alimatov uslubi keng ommalashgan va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning dutor ijrochilik uslubi, mukammal tarzda o‘ng va chap qo‘llar harakatlari bir biriga mutanosib holda ifoda etilishini e’tirof etish joizdir. Dutor sadosi tekis, ravon va serjilo, jozibali yangrashidagi barcha jarayonlarning mutanosibligi aynan Turg‘un Alimatov ijro uslubining asosini tashkil etadi.

Bu uslubda chap qo‘ldagi har bir sayqal va bezaklar o‘ng qo‘l harakatlari bilan muhrlanadi. Bir-biriga mutanosib harakatlarning har biri tinglovchi yuragini tirnab zavqlantiradi. E’tiborsiz qolishga iloj yo‘q, chunki harakatlar ohang bilan uyg‘un, ohang esa tarannumda go‘zal va jozibali taraladi Bu har qanday insonni maftun etadi. Turg‘un Alimatovning dutor ijrochiligidagi o‘ziga xos tomonlaridan yana biri, bu – tanbur va sato cholg‘u ijrochilik an’analarining dutorga moslashtirilganidadir. Bir cholg‘uning imkoniyati ikki va uch cholg‘uning ovoz tarannumlari xususiyati bilan boyitilsa, albatta undan taralayotgan ovoz boy, serjilo

va zabardast bo‘lishi begumon. Bu esa ijrochilik amaliyoti uchun o‘rnak sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy dutor ijrochiligi rang-barang uslublar bilan boyib, o‘z taraqqiyoti jarayonida va davr talabi doirasida rivoj topib bormoqda. Bunga, dutorning o‘quv tizimi jarayoni, ya’ni maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv muassasalarining dasturidan joy olganligi ham misol bo‘la oladi. Chunki, dutor o‘zbek xalqining qadimiy va hamisha zamonasi bilan hamohang yashab kelgan sevimli sozlaridan biridir.

Dutor azal-azaldan O‘rta Osiyoning turli vohalarida o‘z shevasi va an’anasi asosida iste’molda bo‘lib kelgan. Xalq ommaviy ijro yo‘llari, daydi yoki yovvoyi ijro yo‘llari hamda an’anaviy mumtoz ijro yo‘llari doimo xalq dutor ijrochilik amaliyotini bezab kelgan. Dutor aslida, xalqona uslubga moyilligi bilan mumtozlik darajasigacha rivojlangan. Dutor xalq cholg‘u ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va turli cholg‘ular bilan jo‘rnavozlikda, davr madaniyati rivojida munosib o‘rin tutgan hamda kerakli cholg‘u sifatida qadrlangan.

## Savol javob.

1. Dutor so`zining ma`nosi haqida so`zlab bering?
2. Qanday dutor ijrochilik uslublarini bilasiz?
3. Dutor cholg`usi necha xil sozlanadi?
4. Qanday shexsiy dutor ijrochilik maktablarini bilasiz?
5. Shashmaqomning beshinchi maqomi qaysi?
6. “Qo`shtor” kuyida dutor qanday sozlanadi?
7. Dutor bayoti boshqa cholg`ularda ham chalinadimi va qaysi cholg`ularda?
8. “Dutorim” kuyining muallifi kim?
9. O`zbekistonda qanday hududiy dutor ijrochilik maktablarini bilasiz?

# SHARTLI BELGILAR.

Bu shartli belgilar asosan ustozim Malikaxon Ziyaevaning 2008-yil nashr etilgan Dutor (F.Sodiqov ijro uslubi) o`quv qo`llanmalari assosida yozildi. Buni o`quv qo`llanmaga kiritishimdan sabab ustozim M.Ziyaevadan O`rgangan asarlanrimni notaga tushurganman. Bu shartli belgilar aynan Malika Ziyaevaning ijro uslublarini yaqqol ko`rsatishga yordam beradi. Saqili Sulton, Tasnifi Buzruk, Garduni Buzruk, Muxammasi Nasrulloyi, Saqili Rak-Rak, Muxammasi Husayniy, Savti Ushshoq (turkum) kabu kuylar shular jumlasidandir.

Dutor ijrochiligida ko‘pgina ustozlar maktabi mavjud. Ushbu maktablarga xos holda kuy ijro etish uchun musiqiy talqinning quyidagi ijro usullariga e’tibor berish, uni to‘la o‘zlashtirish va quyidagilarga asoslanib tarannum etish maqsadga muvofiqdir: a) har bir parda naqshinkorligi; b) ortiqcha harakatdan qochish;
v) kuyning bo‘sh joyi bo‘lmasligi.

Odatda, dutor ijrochiligida chap va o‘ng qo‘llar harakatlari orqali o‘ziga xoslikka erishiladi. Mohirlikning ham zamini shunga asoslangan. Ustozning ijro uslublarida esa chap qo‘l harakatining muhimligini e’tirof etish lozim. Chunki, ushbu uslubda chap qo‘l bilan bosilgan har pardaning sayqali mavjud. Ya’ni, har bir parda muayyan bezak asosida ijro etiladi. Unga erishish uchun sayqallar silsilasini tarannum etishga to‘g‘ri keladi.

Ijro uslublardan kelib chiqib, ushbu uslubning xarakterlovchi o‘ziga xos jihatlarini quyidagicha izoh etish joiz:

1) ijro jarayonida bosilgan har bir parda naqshinkor;
2) o‘ng qo‘l harakatida ortiqcha zarblardan qochish, ya’ni zarbsiz sadolantirish orqali ulardan voz kechish;
3) bo‘sh, ya’ni zarbsiz pardalarni sado bilan to‘ldirish;
4) mayin ijro etishga erishish.

Ijro uslublarga mansub bo‘lgan musiqiy asarlarni to‘g‘ri ijro etish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni havola etamiz:

1. P – pastga yo‘naltirilgan zarb;
2. V – yuqoriga yo‘naltirilgan zarb;

3.  – umumiy miyang‘. Sayqalli parda, quruq tovush emas;

Miyang‘[5]– akademik ijrochilikdagi glissaido ijro uslubining o‘ziga xos ko‘rinishlari deyish mumkin. Faxriddin Sodiqov ijro uslubida miyang‘ ikki ko‘rinishda uchraydi. Oddiy miyang‘ va sadoli miyang‘. Oddiy miyang‘ o‘z o‘rnida yana ikki ko‘rinishga ega.

4.  – oddiy miyang‘. Ikki ko‘rinishda keladi.

1) Bir tovushni chuqur kashish bilan bezash;



2) Bir xil balandlikdagi ikkita tovush oralig‘ida bir parda baland tovushni sado orqali hosil qilish.



5.  – Sadoli miyang‘. Nota.



Ushbu bezakka ijrochi to‘lqinli kashish orqali erishadi.

---

[5] Miyang‘ – dutor ijrochiligi bezaklar ifodasi uchun tavsiya etilmoqda. Ibora F.Sodiqov amaliyotidan olingan.

6. T↕[6] – terma zarb. Faqat dutor ijrochiligiga xos bo‘lib, barmoqlar almashib, ularni nozik holatda ketma-ket harakatlantirish evaziga erishiladi. Ijrodagi nota ko‘rinishida quyidagicha ifodalanadi;



7. TM[7] – miyang‘ termasi. Amalda keng qo‘llaniladi hamda vaziyat (kuy) taqozo etgan joyida ishlatilishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu usulda terma zarb, ya’ni to‘rt zarbning birinchisi qoldirilib (zarbsiz) ijro etiladi. Nota namunadagi ko‘rinishi quyidagicha:




Miyang‘ termasini ijroda amalga oshirish uchun terma zarbning birinchi tovushi miyang‘ uslubi orqali qolganlariga bog‘lab ijro etiladi.

8.  –kashish. Tanbur, rubob va dutor cholg‘ularida ko‘p ishlatiladigan (bir xil uslubdagi) ijro bezagi.



9.  [8] – sadoli liga. Ikki tovush ketma-ketligida, ikkinchi tovush zarbsiz, chap qo‘lning harakati bilan amalga oshiriladi. Lekin avvalgi amaliyotchilar nota yozuvida maxsus belgi ifodasini bermaganlar. Zamonaviy

---

[6] T – Ijrochilik amaliyotida qo‘llaniladi.
[7] TM – Ijrochilik amaliyotida qo‘llaniladi.
[8] Ijrochilik amaliyotida qo‘llaniladi.

ijrochilik amaliyotiga tadbiq etish va nota yozuvida foydalanish uchun joriy qilish davr talabi ekanligini e’tirof etib o‘tish lozim. Ayniqsa, jo‘rnavozlik hamda ansambl ijrochiligi amaliyotida talqinning (ijroning) bir xilligini ta’minlashda juda zarurdir.

Sadoli liganing nota yozuvidagi ifodasi quyidagicha:



Ushbu ijro usulining zaminida zarbli va sadoli miyang‘ ham mavjud. Unga erishish uchun barmoqlar bir tovushdan 0,5 tondan 1 tongacha yuqori bo‘lgan ikkinchi bir tovushga qarab kashish usuli orqali harakatlantiriladi.

10.  – to‘lqinlatish. Musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladigan ijro usuli. Torli zarbli, torli kamonli cholg‘ular ijrochiligida ko‘p uchraydi. Dutorda ham o‘ziga xos ifodasini topgan. Ushbu ijro usuli chap qo‘l harakatida (zarb bilan yoki zarbsiz) amalga oshiriladi. To‘lqinlatish usuli ijroga joziba va zavq beradi. Unga erishishning usuli parda bosishda yarim tongacha bo‘lgan oraliqda tovushni to‘lqinlatish orqali amalga oshiriladi.



## Savol javob

1 Teskari zarb qanday chalinadi?

2 Umumiy miyang qanday chalinadi?

3 Shashmaqom necha bo`limdan iborat?

4 Terma zarbni yozib bering?

5 Gardun usulini yozib bering?

6 Sadoli liga qanday ko`rinishda bo`ladi?

7 Muxammas usuli necha taktdan iborat?

8 Sarahborlar qaysi usulda chalinadi?

9 Saqil usuli necha taktdan iborat?

10 Talqincha usuli qanaqa o`lchovda bo`ladi?

11 “Aliqmbar” kuyi qaysi o`lchovda yozilgan?

12 Mug`ilcha usuli qaysi o`lchovda keladi?

# KUYLARGA KICHIK SHARHLAR

**Aliqambar** – Turkiston xalqlari ijodida chaqmoq va momoqaldiroq chaqiruvchi afsonaviy shaxs, baxshi va sozandalar «piri», shuningdaek musiqa asboblari (masalan: dutor)ning afsonaviy ixtirochisi.

Bir afsonada aytilishicha: Hazrati Alining bir otboqari bo‘lib uning ismi Qambar edi. Qambar Hazrati Alining nafaqat otini qaragan, balki u insonga sodiq hizmatkoridir. Qambar dutor sozining mohir ijrochisi ham bo‘lgan. U ijro etgan musiqalar eshituvchini mast qilishi, o‘zga olamga tortishi ham mumkin ekan.

Shundan beri Alini Qambarini musiqalaridan chal deya sozandalarga buyurtma berishar ekan.

O`zbek xalq kuyi. Vazmin lirik raqs, usul jihatdan ufar yo`llariga yaqin. Bu kuy dutor cholg‘usiga mos va shuningdek xorazim dutor yo`llarini ko`rsatishda juda qilay. Bizga ma’lumki dutor shtix jihatidan imkoniyati keng milliy cholg‘ularimizdan, shu bois Aliqambar kuyida ko`plab rang-baranga musiqiy bezaklardan foydalanish mumkin. Ushbu nota yozuvda ham xorazim yollariga yaqin shtrixlardan va bezaklardan foydalandik. Kuyda uchraydigan PPVV-terma zarbning birinchi zarbi ya`ni kuchli hissada to`rtta barmoqning chertilishi va ozgina dutor qopqog‘iga urilishi orqali chiqariladi. Bu yo`l xorazim dutor maktabiga xos uslublardan.

**Eshvoy –** XVII asrning birinchi yarmida Xorazmda Eshvoy ismli baxshi bo‘lib, dostonlar ijro etganda nomalarni o‘ziga musiqiy ohanglar orqali namoyon etgan.Keyingi davrlarda uning doston nomalariga bastalagan asarlarini shogirtlari shu davrning eng mashxur sozi dutorda alohida kuy sifatida chalib elga tanitib yuborishgan.Eshvoyning baxshi shogirtlaridan biri Eshniyoz go‘rja (ko‘zi ojiz) alohida ashula sifatida ham tanilishiga sababchi bo‘ladi. Farg‘ona vodiysiga borib qolishiga sababchi mohir sozanda, xonanda XVII asr ohiri, XIX asr boshida yashab ijod etgan Xudoyberdi ustoz orqali tarqalgan. Bu inson asli Qashqarlik bo‘lib, Gulom Zafariyning ta’biri bilan aytganda yurt kezib qayerda birorta hang eshitsa shuni o‘rganish uchun intilgan. Uning shogirtlari juda ko‘p bo‘lib, asosan Qo‘qon xonligida istiqomat qilgan.Bu asar vaqtlar o‘tib sayqallanib, Farg‘ona-Toshkent

rangini oldi. “Eshvoy” kuyi turli cholg‘ularda yakkaxon va ansambllarda ijro etilgan. Ustoz O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Alimatov dutorda ijro qilganidan so‘ng, mazkur asarga mehrimiz tushib, kamina ijro etdi. Turg‘un Alimatov ijrosidagi bezaklar, farshlaglar, triollar kuyga o‘zgacha sayqal berdi. Mazkur dutor ijro yo‘lini notaga olib, ushbu o‘quv-qo‘llanmaga talabalar foydalanib, organishi uchun qo‘shdik.

**Duchava –** ikki cho‘p ma’nosini anglatib, an’anaviy O‘zbek nog‘ora va doyra usullaridandir. Ayrim turlarini Usta Olim Komilovdan Ilyos Akbarov notaga yozib olgan. “Katta O‘yin” raqslar turkumidagi asosiy raqslardan bo‘lib, unda nog‘ora dam-badam urilgani uchun shu nom bilan atalgan. Dorbozlar o‘yinlari jo‘rligida foydalaniladigan kuy va usul. “Shodiyona” usullar turkumining to‘qqizinchi qismi. Kelib chiqishi Farg‘ona-Toshkent sunray ijrochiligi yo‘llaridan bo‘lib, ayniqsa Andijon-Buloqboshi surnaychilik maktabi asarlaridandir. Mazkur asar keyinchalik boshqa maktablarda ham keng tarqala boshladi masalan: Toshkent surnaychilik maktabida asosiy ijro dasturidan o‘rin olib, milliy cholg‘ularimizdan dastlab rubobda, g‘ijjakda ijro etila boshladi.

Bu asarni birinchi bo‘lib O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, ustomiz Malika Ziyayeva rahbarligidagi “Shukrona” professional dutorchilar ansambliga o‘rgatib ijro etildi. Dutor sozida yakka ijroda ham chalinib, dutor sinfi dasturiga kiritildi.

**Kurd –** etnik qabilaning nomi bo‘lib, kuy shu qabilaning nomi bilan atalgan. Bu asarni aynan Kurd musiqasi deyish qiyin, bunda na doyra usuli, na musiqiy matni ular musiqasini eslatmaydi. Kurd kuyi aynan bizning milliy musiqamiz an’analari asosida yaratilganligiga shak-shubha yo‘q.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur o‘z vaqtida shaharlar va qishloqlar barpo etib, ularga dunyoning mashhur shaharlarining nomlarini bergan. Masalan: Forish (Parij), Bag‘dod (Bog‘dod) kabi nomlar bilan atagan. Bu urf-odat undan keying davrlarda ham o‘z ahamiyatini yoqotgani yo‘q. Ushbu an’ana musiqa san’atida ham o‘z aksini topdi. Mo‘g‘ulcha, Qashqarcha, Rok kabi maqomdan o‘rin olgan atamalar ham shular jumlasidandir. “Kurd” kuyini milliy cholg‘ularimizning barchasida ijro etilgan. Hatto ansambllar ijrosida ham chalingan, ayniqsa

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, bastakor Faxriddin Sodiqov rahbarligidagi sozandalar ansambli ijrosida ham bu kuy o‘zgacha aks etgan.Dutor cholg‘usida Ustoz O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Alimatov ijro qilganidan so‘ng, mazkur asarni o‘rganib ijro etdik. Turg‘un Alimatov ijrosidagi bezaklar, farshlaglar, triollar kuyga o‘zgacha sayqal berdi. Mazkur dutor ijro yo‘lini notaga olib, ushbu o‘quv-qo‘llanmaga talabalar foydalanishi uchun qo‘shdik.

**Dutor bayoti –** Bayot so‘zi Turk qabilalaridan birining nomidir. Ozarbayjon maqomlarida ham Bayot sho‘basi uchraydi. Bu yurt musiqachilarining aytishiga ko‘ra Bayot qabilasining ashula aytmagan, raqs tushmagan va soz chalmagan vakili bo‘lmagan ekan. Ozarbayjon kitoblarida keltirilishicha Bayot qabilasidagi cholg‘u sozlarining turlari mingdan oshar ekan. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin Bayot qabilasining odamlari har tomonga tarqab ketishgan.Ular borgan joylarida o‘z qabilasidagi musiqalarni tarqatganlar.Bu targ‘ibot esa maqomotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan degan tahminlar bor.

Mazkur kuyni an’anaviy ansambllar ijrosida ham ko‘p bora tinglaganmiz, alohida sozlarda ham muntazam chalinadi. Ayniqsa, rubobda (M.Mirzayev, T.Rajabiy, R.Qosimov) tanburda (Jo‘rabek Saidaliev, Abdulla Umarov) bulardan tashqari O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limida (rekonstruktsiya qilingan cholg‘ularda fortepiano jo‘rligida) ijro qilingan.An’anaviy dutorda oldinlari koplab ustozlar (Z.Obidov, M.Yunusov, O.Qosimov, A.Hamidov, M.Ziyaeva) ijro etishgan.Ammo ma’lum muddat, ya’ni rekonstruksiya qilingan dutorlarda “Dutor Bayoti” kuyi chalingani uchun, an’anaviy dutor ijro dasturidan tushib qolgan edi.Bugungi kunda bu asarni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, ustomiz Malika Ziyayeva an’anaviy yo‘lda qayta tiklasb, ular rahbarligidagi “Shukrona” professional dutorchilar ansambli ijro etishdi.Hozirda dutor sozida yakka holda chalinib, dutorning ijro dasturiga kiritildi.

**Ilg‘or –** Qadim Xoramda ma’lumki dostonchilik san’ati rivoj topgan. Noma deb atalgan kuy yo‘llari bir necha turga bo‘linadi, zorinji, nolish, eshvoy, naylarman, ilg‘or kabi bir nechta musiqiy ko‘rinishlari bor. Shulardan biri Ilg‘or besh qismdan iborat bo‘lib shu nomalar asosida bastalangan. Ushbu kuy juda ilg‘or suratda ijro etilib, sozanfaning ijro mahoratini oshiradi va tinglovchiga zavq

bag‘ishlaydi. Xorazm dutor maktabida o‘ziga xos zarblar, bezaklar mavjud bo‘lib, Ilg‘or kuyi shu maktab ijro yo‘lini, uslubini yaqqol namoyish etadi. “Ilg‘or” kuyini dastlab Safarov Bekzod, Farangiz Mahmudova va kamina uchta dutorda ijro etdik. Ustozimiz O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zDK dotsenti Malika Ziyayeva uchta dutorga moslashtirib chaldirgan.Ushbu oquv-qollanmada notaga olish jarayonida yakka dutorga mosladik.

**Dutorim –** Faxriddin Sodiqov tomonidan bastalangan ashula bo‘lib, dutor cholg‘usida o‘ziga yangraydi. Ashulani asosan ayol xonandalar tomonidan ijro etib kelinadi. Kuy yo‘lida uchraydigan teskari zarblar (PVV-PVV-PV) orqali birinchi bo‘lib dutor ijrochiligida ommalashtirgan ustoz san’atkorlardan biri Z.Obidov aynan “Dutorim” asarini kuy shakliga moslashtirdi.Asar juda ko‘p dutorchilar tomonidan mohirona ijro etilgan.Bu nafaqat an’anaviy dutor ijrochilik dasturidan o‘rin olgan balki O‘zbek xalq cholg‘ulari tarkibidagi dutorchilar ham fortepiano jo‘rligida ijro etishgan. Bugungi kunda bu asarni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, ustomiz Malika Ziyaeva rahbarligidagi “Shukrona” professional dutorchilar ansambli ijro etishdi.

**Qora dali –** bu kuy haqida gapirishdan oldin bir afsona bilan boshlasak: “Bir yurtning podshosining Qora-dali laqabli oti bo‘lgan ekan. Bu ot juda aqlli bo‘lib, rangi tun rangida, yollari oq ekan. Podshoh shu otni juda yaxshi ko‘rib, har soatda otida o‘zi xabar olar ekan. Kunlarning birida podshohning o‘g‘li shahzoda dushman bilan jang qilish uchun otlanib, otasidan Qora-dalini berib turishini so‘rabdi.Podshoh otni berib, ehtiyod bo‘lishini tayinlabdi. Shahzoda beayov jang qilib, yarador bo‘libdi, ot esa shahzodani jonini omon saqlash uchun o‘zini qurbon qilibdi. Shahzoda Qora-dali o‘lganligi to‘g‘risida podshohga xabar berishi kerak edi. Ammo bu noxush xabarni etkazishni biror kishi o‘z zimmasiga olmaydi. Chunki podshohning sevimli otini halok bo‘lgani haqidagi xabarni yetkazgan odam qatl etilishi muqarrar edi. Bu vazifani baxshiga buyurishadi.Baxshi esa o‘z navbatida yo‘lda ketayotib kuy bastalaydi va kuy orqali otni ta’rif etadi, musiqiy matn orqali otni o‘lgani xabarini beradi. Podshoh kuyni eshitgach, Qora-dali o‘zini fido qilganini anglaydi, baxshiga esa o‘z minnatdorligini bildirib, uni qatldan ozod etadi. Bu kuy keyinchalik baxshilar tomonidan doston ijrosidan oldin chalinadigan

cholg‘u kuyi sifatida amaliyotga kirdi. Bu kuy boshqa milliy sozlarimizda ham ijro etiladi, ammo dutordagi ijrosi o‘ziga xos bo‘lib, zarblar, musiqiy bezaklar Xorazm dutor maktabini asl ko‘rinishlaridan biridir.

**Norim-norim –** Norim sozining lug‘aviy ma’nosi – anor terimi, ya’ni kech kuzda bo‘lib o‘tadigan marosimlardan biridir. Qadim Xorazmda anor terimi xalq orasida mushtoqlik bilan kutilib, marosim shakliga aylangan. Bu marosimga sozandalar jalb etilib, turli kuy va qo‘shiqlar ijro etilgan. Shulardan aynan anor terimiga bag‘ishlab bastalangan musiqiy asar “Norim-norim”dir. Sovet tuzumi davrida ushbu kuyga so‘z qo‘yilib ashula shakliga keltirilgan. Ko‘plab xonandalalar vahatto xonandalar ansambli ijrosida ham tinglaganmiz. Dutor sozida bu kuy o‘ziga xos jaranglab, eshituvchiga zavq bag‘ishlaydi.“Norim-norim” asari ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi o‘rtacha tezlikda boshlanib, ikki xil doyra usulidan tashkil topgan. Ikkinchi qismi esa Ufori doyra usulida bo‘lib, shux suratda chalinadi. Ijrochining mahoratini oshiruvchi va imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi kuylardan biridir.

**Adolat tanovori –** Ustolarning aytishicha o‘tgan asrning boshlarida ayolla sahnaga chiqib honish qilishi yoki rol ijro etishi amri mahol bo‘lgan. Ko‘p ayollar paranji kiyishgan.Ammo shu davrlarda Adolat ismli qiz birinchilardan bo‘lib sahnada tanovar ijro etgan. Uning yaqinlari bu ijrodan so‘ng, nomahramlarga ovozi va yuzini ko‘rsatgani uchun uni tahqirlashadi, oqibatda o‘ldirashadi. Bu tanovar keyinchalik butun O‘zbek xotin-qizlarining sevimli ashulasiga aylanadi. Tanovar atamasi esa qadimdan mavjud bolib, ayollar maxsisining yuqorisi, yani boldir qismi bezaklari aynan tanovar deb nomlangan.Zodagon ayollarning maxsisining tanovariga chiroyli naqshlar, qimmatbaho zebu ziynatlar tikilgan bolib, qo‘llarini ko‘tarib raqsga tushganida ko‘ylagining etagi ko‘tariladi, shunda barcha ayollarga maxsiga tikilgan bezaklar ko‘rinadi.Shu orqali “tanovarini ko‘rsating” deya raqsga chorlash an’anaga aylangan.Tanovarlar Farg‘ona-Toshkent ichkari, yani ayollar musiqiy ijrochilik an’analari safidan joy olgan. Hozirgi kunda tanovarlarning o‘n oltita turi mavjud bo‘lib, Farg‘ona tanovari, Namangan tanovari, O‘zgancha tanovar, Yovvoyi tanovar kabi ashula va cholg‘u asarlari mashhur.

Ustozimiz, O‘zbekiston xalq artisti, “Buyuk xizmatlari” ordeni nishondori, professor Turg‘un Alimatov tomonidan ko‘p variantlarda ijro etilgan. Jumladan O‘zbekiston xalq artisti Mehri Abdullayeva ijrosiga sato sozada jo‘r bo‘lgan. Bundan tashqari alohida sato va dutorda (ikkalasini ham o‘zlari chalganlar) go‘zal ijro etib O‘zMTRK oltin xazinasiga muhrlagan. Alohida dutorda chalgan namunalarida dutor sozining ijro imkoniyatlarini to‘liq ko‘rsatib berganlar.Ushbu nota yozuvi aynan ustozning ijrolaridan yozib olingan.

**Tasnifi Buzruk** – Shashmaqom tahminan XVIII asrning birinchi yarimlarida musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Bunday taxminga sabab O‘rta Osiyoda XVIII asrgacha yozilgan musiqa risolalarida 12 maqom ya’ni Duvozdax maqom haqida gap boradi.Tasnif so‘zining ma’nosi sinflashtirish, tartiblash ya’ni joy joyiga qo‘yish demakdir.Bir mavzuni turli pardalarda tartib bilan ijro etiladigan kuy yo‘li aynan tasniflarga xosdir.

Barcha tasniflar cholg‘u bo‘limining kuy yo‘llarini tashkil etgan xonalar avj tomon harakat etar ekan, ularning tovush ko‘lami kengayishi bilan birga mazmunan chuqurlashib, kengayib boradi.Tasniflar maqomlarning har birida mustaqil musiqiy mavzularga ega bo‘lib, kuy yo‘llari bir–biridan tubdan farq qiladi.

Ma’lumki, tasnif yo‘llarining eng muxim alomatlaridan biri doira usullaridir. Doira usullari maqomning kuy va ashula yo‘llarini o‘ziga xos tomonlarini ochib beradi. Maqomlarning tarkibida bo‘lgan anchagina kuy va ashulalar bir musiqiy mavzuni boshqa pardalarda ijro etish yo‘li bilan ishlangan ya’ni Yevropa musiqasida bunday uslub sekventsiya deyiladi.

Tasniflarning ohangi ta’sirida kishi beixtiyor xayollar, hissiyotlar olamiga sho‘nqib ketadi. Mutaxassislarning kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, bu asarni tinglash davomida tinglovchida bafurja, erkin, mustaqil fikr yuritishga imkon tug‘iladi.Qiziq tomoni shundaki, bu kuylarni doimo ixlos bilan tinglagan odam turli vaziyatlarda ham to‘g‘ri qaror qabul qila oladi. Umuman, tasniflarni tinglash insonda hurfikrlilikni, indvidual tafakkur qilish va erkin mushoxada yuritish malakalarini shakllantiradi. Ushbu tasnif esa Buzruk pardalari asosida ishlangan

bo‘lib, peshrav musiqiy mavzusida rivojlanib, tobora kuy o‘sib boradi. Dutor cholg‘usida o‘ziga xos yangrab, sozandadan diqqat va e’tibor talab etadi.

**Garduni Buzruk** – maqomlar to‘la va yaxlit ijro etiladigan bo‘lsa dastlab ularning cholg‘u yo‘llari ijro etilishi lozim. So‘ngra ashula bo‘limining sho‘balariga o‘tiladi. Shunday bo‘lishi bilan birga cholg‘u bo‘limidagi kuy yo‘llarining har biri mustaqil cholg‘u qismlari hisoblanadi va o‘zlari mansub bo‘lgan maqomlar nomi bilan qo‘shib aytiladi. Masalan, Tasnifi buzruk, Tarje' Rost, Saqili navo, Samoi Dugoh va xokazo. Navbatdagi Gardun qismi o‘z nomi bilan “Gardun” ya’ni “aylana” tarzda ijro etilishi lozim bo‘lgan asardir.Ya’ni bir xil kuy mavzusi har xil shaklda takrorlanaveradi. Gardunlarda kuy harakati va doira usuli o‘zgarmaydi, ya’ni deyarli barchasida ular bir xil. “Gardun” osmon gardishi, aylana, taqdir ma’nolarini bildiradi. Musiqada esa gardun ma’lum bir doira usulining hamda shu usul jo‘rligida muayyan parda tuzuk ya’ni o‘z maqomiga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuyning nomidir.O‘tmishda XIII–XVII asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda Garduniya, Gardoniya nomlari bilan atalgan maqom sho‘balari haqida ko‘plab ma’lumotlar bor. Ularning bizgacha yetib kelgan shakli Shashmaqomdagi Gardun yo‘lidir.Gardun yo‘llarida bozgo‘y hamma xonalardan keyin kelavermaydi, balki u ikki-uch xonadan so‘ng takrorlanadi.Kuy yo‘lidagi yuqoriga sakrashlar, asta-sekin boshlanqich pardaga tushib kelishi bilan yakunlanadi.Gardun yo‘llari musiqiy tuzilishi jihatidan nisbatan katta hajmda bo‘lmasada kuy tuzilishi harakati nuqtai nazaridan tasnif yoki tarje'larga ko‘ra ancha murakkabroqdir. Garduni Buzruk asari o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, sozandadan Tasnifi Buzrukni ijro etgandagidek diqqat, e’tibor talab etiladi.

Maqom ma’lum ladga mos keladigan kuy va ashulalar yig‘indisigina bo‘lib qolmay, balki, ular boshlanadigan pardalarni ham ifodalaydi. Shu ikki jihat maqomlar tizimini tushuntirishda e'tiborga olinishi kerak.Shashmaqom haqidagi ko‘pgina kitoblarda esa bu narsaga ba’zan e'tibor berilmagan.Gardun tinglayotganda asta-sekinlik bilan odamning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shilib boradi.

**Muhammasi Buzruk** – Maqomlardagi asosiy mavzu ko‘pincha doira usuli va musiqiy almashinuvlar vositasi bilan turli shakllarga tushiriladi. Cholg‘u

yo‘llarda esa kuy mavzusi o‘zgaruvchandir. Ularga yangi-yangi musiqiy mavzular kiritish bilan kuy yo‘li takomillashaveradi. Ularning ta’sir kuchi ortib boradi. Tasnif, tarje’, gardun, muhammas yo‘llari birin ketin ijro etilar ekan ulardagi parda asosi va kuyning mavzusi yaqin bo‘lgani kuy jumlalarining rang–barang ohangdorligi, yoqimliligi hamda doira usullarining turliligi bilan butunlay sezilmay qoladi. Bunda ijodkor, bastakorlarning ustalik bilan yaratgan maqom yo‘llarining benuqsonigini ko‘rishimiz mumkin.

Muxammasi Buzruk xona va bozgo‘ylardan tashkil topgan yirik asardirlardir. Doira usuli esa musiqiy tilda aytganda o‘n olti taktdan iborat bo‘lib, har bir xona va bozgo‘y o‘n olti taktlik kuy mavzusiga ega. Shashmaqom cholg‘u bo‘limida eng ko‘p uchraydigan qismlardan biri muxammaslardir. Muxammas so‘zi beshlik ya’ni g‘azaldagi besh qatorlik g‘azalni bildiradi. Savol tuqiladi: 16 taktlik doira usuliga beshlikning nima aloqasi bor? 16 takt ichidagi usullar aslida beshta usuldan iborat. Shu besh usul 16 taktda almashinib keladi. Buning ichida tasnif usuli, nasr usuli, zarbul qadim usuli, savt usuli va shunga o‘xshagan boshqa usullarning ko‘rinishlari mavjud

Maqomdagi xona iborasi o‘tmishda kuy va ashula bo‘laklarini ifodalovchi musiqa iborasi sifatida qo‘llanilgan. Bizgacha yetib kelgan ashula yo‘llarida xona va bozgo‘ylardan tuzilgan kuy yo‘llarining yuzlab namunalarini topish mumkin. Maqomdagi muxammaslar ham aynan shu an'anaga bo‘ysunib, xona, bozgo‘y tartibida ijro etiladi.

**Muhammasi Nasrulloi** – Shashmaqomningtarqalishida ikki asosiy an'ana qaror topganligi kuzatiladi. Ularni shartli ravishda xos va ma’muliy deb belgilash mumkin. Birinchisi eng nufuzli maqom muqlislari diqqatiga havola etiladigan hashamatli saroy uslubi. Ikkinchisi, maqom yo‘llarini saroydan tashqarida kengroq doirada to‘y hasham va bazm ziyofatlarda joriy etilgan ko‘rinishi. Saroy sozandalari va hozirgi kundagi sozandalarining maqom ijro etishdagi farqi shundaki, saroy sozandalari uch to‘rtta cholg‘u asboblar bilan bir butun maqomni uzluksiz ijro etganlar.

Shinavandalar iltimosiga binoan albatta hozirgi kun sozandalari esa ikkita doira, ikkita qijjak, nay, qo‘shnay, chang, qonun, Qashqar rubobi, ud, dutor va

tanbur sozlarida maqomlarni alohida kuy sifatida chiroyli ijro etishadi. Ularning ham qobiliyati butun bir maqomlarni boshidan oxirigacha uzluksiz ijro etishga qodir, lekin buni eshitadigan hozirgi kun shinavandalari bunga tayyor emaslar. Shinavandalarni tayyorlash uchun esa radio va televideniening oʻrni alohidadir.

Xorazmda xos va maʼmuliy toifadagi ijrochilar saroy sozandalari va el sozandalari nomlari bilan atalgan. Ana shu el sozandalari tomonidan sevib ijro etilgan. Muhammasi Nasrulloi ham xalq orasida mashxurligi jihatdan keng tarqalgan. Nasrulloi deb nomlanishining sababiustozlarning aytishicha yaratuvchilar yoki shu davrda hukmronlik qilgan podshohlar nomi berilgan degan taxmin mavjud.

Muhammas yoʻllarining tuzilishi, doira usuli murakkab boʻlsada, ular maqomlarning boshqa yoʻllaridan koʻra mashxurroqdir. Buning sababi muhammas yoʻllarida kuyning jozibadorligi va taʼsirchanligi jihatidan ularning murakkab qiyofasiga qaramay eshituvchiga oson yetib borishi bilan ajralib turadi.

“Muhammas” cholgʻu yoʻllari uchun xos boʻlgan narsa shuki, ularda xona va bozgoʻylar doira usuli hajmidagi bir xil oʻlchovda yaʼni oʻn olti taktdan iborat boʻladi. Ushbu muhammas doira usuli har bir xona va bozgoʻy xajmini belgilaydi. Baʼzan kuy avjga yetganda bozgoʻyga qaytib tushishi uchun bir xona kifoya boʻlmay qoladi.Shuning uchun koʻpincha avjda ikki uch xona ketma ket ijro etilib, soʻngra bozgoʻyga yetib kelinadi.

**Muxammasi Husayniy** – Husayniy qadimgi saroy musiqachilaridan birining ismidir. Bu ismni Shashmaqom va Fargʻona-Toshkent maqomlarida koʻplab uchratish mumkin. Masalan Husayniy Navo, Dugoh Husayniy va shunga oʻxshash koʻplab asarlarga Husayniy nomi qoʻshib aytiladi. Husayniy Navo Muhammasi Bayotning baʼzi xonalarini umumlashtirib bozgoʻy sifatida keladi. Muhammasi Husayniy kuyi juda chiroyli asar, chunki u chiroyli asarlardan yana biri Muhammasi Bayotning eng goʻzal joylarini olgan. Muhammasi Husayniy odamlarga goʻzallik ulashib, ularning qalbiga yaxshilik urugʻini qadaydi.

Maqom deganda musiqa asbobida ijro etiladigan kuyga mos qilib sozlanishi ham tushuniladi. Buning musiqa amaliyotidagi ifodasi shuki, sozanda va bastakorlar orasida Navo yoki Bayot sozi yaʼni cholgʻu asbobini ularning parda

asosiga moslab sozlanishi Rost sozi, Buzruk sozi yoki Segoh sozi kabi maxsus iboralar bilan ishlatilib kelinadi. Ayniqsa tanburda bu sezilarli bo‘lib, hatto uning pardalari ham yuqori yoki pastga surib kuylarning pardasiga moslashtiriladi.

Manba’lardan ma’lum bo‘lishicha Arab va Eronliklarda Yunon musiqa madaniyati Arabchaga tarjima etilguniga qadar maxsus musiqa nazariyasi bo‘lgan. Xorijiy mamlakatlar olimlarining ko‘pchiligi asossiz ravishda, Markaziy Osiyo xalqlarining O‘rta asr madaniy boyliklari forslar yoki Arablardan olingan va bu ularning madaniy boyliklarining tarkibiy qismi bo‘lgan deb qaraydilar. Bu noto‘g‘ri albatta. Markaziy Osiyo xalqlari Sharqqagina emas, balki butun dunyo fani va madaniyati xazinasiga salmoqli xissa qo‘shgan. Markaziy Osiyodan chiqqan ko‘pgina buyuk olimlar zamonasining talabiga ko‘ra Arab yoki fors tilida yozganliklari ularning o‘lmas asarlarini o‘sha tilga mansub xalqlarning madaniy boyliklari deb xisoblashga asos bo‘la olmaydi.

**Saqili Sulton** – XV–XVIII asrning manbalarida bayon etilgan bastakorlik an'anasi 12 maqomgagina emas Shashmaqomga ham taalluqlidir. Shu an'ananing davom ettirilishi natijasida 12 maqomning tarkibiy qismlari Shashmaqomda ham keltirilgan. Saqili Sulton ham o‘sha 12 maqom safidagi maqomlardandir. Saqil iborasiga Sulton so‘zining qo‘shilishiga sabab esa asar Saqillarning Sultonidir. Bunday martabalarning kuylarga berilishi o‘sha 12 maqom davridan qolgan.

Halihanuz tadqiqotchi olimlarning Saqil borasidagi tortishuvlari ohiriga yetgani yo‘q. Lekin bu borada Isxoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobida: “Saqil – og‘ir, vazmin doira usulida ijro etiladigan maqomlarning cholg‘u qismi”, deyilgan. Aslida saqillar Shashmaqom cholg‘u bo‘limidagi 24 taktlik doira usuli va kuy mavzulariga ega bo‘lgan yirik bir bo‘lakdir. Bizning nazarimizda Isxoq Rajabovning xulosalari juda to‘g‘ri, qisqa va lo‘nda aytilgan. Saqil so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham “og‘ir, vazmin”deganidir. Maqom doirasida “Saqil” og‘ir, bosiq kuyni anglatadi. Musiqa tilida esa vazmin sur'atda ijro etiladigan juda murakkab doira usulining nomidir. Saqillarga xos musiqiy xususiyat ijro etilish uslubi Shashmaqomda tasodifan qabul qilinmagan. Chunki Buxoro maqomlarida saqillardan so‘ng ularning ashula bo‘limiga o‘tiladi.Ashula bo‘limi esa vazminroq ijro etiladigan Saraxborlar bilan boshlanadi. Saqil o‘zining doira usuli xususiyati

bilan Saraxborlarga osongina ulanib ketadi va sur'ati jihatidan ham kuchli burilish sodir bo‘lmaydi.

**Saqili Islim –** XI–asrda noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Risolatun Fissimo'” asarida musiqa eshitish masalasida shariat ahlining fikrlari bayon etilgan. Kitob muallifining aytishicha: “Yoqimli ovoz yuksak ta’sir kuchiga ega bo‘lib, uni eshitish bilan inson qalbi ichki alamlardan holi bo‘ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik va tashnalikni esdan chiqaradi. Musiqa og‘ir meqnatdan keyin dam olishning eng yaxshi vositasidir.Yig‘lab turgan bola ona allasini eshitib tinchlanadi va uxlab qoladi.”

Saqillarda muhammaslardagi kabi xona va bozgo‘ylarning xajmi doira usuli bilan teng bo‘ladi. Ya’ni xona 24 takt, bozgo‘y ham 24 takt qajmga ega.Ulardagi doira usuli qar bir takt uchun qar xil ijro etiladi.Lekin doira usulini 24 taktli alohida usullar deyish qiyin. Albatta ularning ichida ham takror usullar uchraydi.Shunga qaramay ijrochi uchun Saqillar Shashmaqom cholg‘u yo‘llari ichida eng murakkabi hisoblanadi.Musiqa nazariyasi xech qachon hozirgi davrdagidek musiqaning amaliy tomonlariga boqlab ta’riflanmagan edi. Al-Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Abdulmo‘min Urmaviy, Xo‘ja Abdulqodir, qutbiddin Sheroziy kabi olimlarning musiqa nazariryasiga doir kitoblari umuman Sharq xalqlari musiqasining asosini bizga juda qoronqu bo‘lgan IX–XIV asr musiqa madaniyatining amaliy tomonlariga boqliq masalarni aks ettiradi.

XV asr musiqa risolalarida bizga ancha yaqin bo‘lgan davrdagi musiqa asarlariga bog‘liq masalalar ustida mulohaza yuritiladi. Shunday masalalardan eng muhim mavzumiz bu Shashmaqomning cholg‘u bo‘limidir. Maqomlar Arablarning istilosiga qadar ham boshqa nomlar bilan atalib kelgan degan fikrlar ham bor. Arabcha maqom iborasi esa Markaziy Osiyoda tahminan al-Farobiy davrida mashxur bo‘la boshlagan. Arab istilosi davrida Markaziy Osiyo xalqlari madaniy yodgorliklari qatorida musiqaga oid tarixiy manbalar ham Islom dini ruhiyatiga to‘g‘ri kelmaydi degan bahona bilan yo‘qotilib yuborilgan. Ingliz olimi Fermerning “Islom entsiklopediyasi”ga yozgan musiqaga doir maqolasida Markaziy Osiyo va Xuroson xalqlarida Arab istilosigacha mahsus musiqa nazariyasi bo‘lganligini qayd etgan. Bunday musiqa nazariyasida esa maqom kabi

nazariy asosga ega bo‘lgan kasbiy musiqa janrlarigina o‘z ifodasini topishi mumkin.Iroq maqomidagi Saqillar navbati Iroq yoki boshqa nomlar bilan atalmagan.Bunday bo‘lishiga sabab, ustozlarning aytishicha, bu Saqillar avvallari o‘z bastakorining nomi bilan atalgan. Vaqt o‘tib, amirlarga bunday nomlanish xush kelmagan va bastakorlarning nomlarini oldirib tashlab, Saqilni birinichi va ikkinchi deb atashni buyurishgan. Saqili Islim bundan mustasno bo‘lib, taxminimizcha Islim bastakorning ismi bo‘lmay Islom, ya’ni dinimizga ishora etilgandek tuyuladi nazarimizda.

**Saqili Rak-rak** – Bizning tadqiqotlarimiz albatta manbalarga suyanadi. Shuning uchun rak-rak so‘zining ma’nosini Ishoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doira kitob”idan qidirdik.Unda yozilishicha “Rak so‘zining asl ma’nosi noma’lum. Rak so‘zi xindcha “maqom” so‘zining ifodasi bo‘lishi mumkin. Boshqa manbalarda yozilishicha esa “rak–rak” doira usuliga o‘xshatma sifatida keltirilgan.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur o‘z vaqtida shaharlar, bog‘lar va qishloqlar barpo etib, ularga dunyoning mashhur shaharlarining nomlarini bergan. Masalan: Forish (Parij), Bag‘dod (Bog‘dod), Bog‘i Eram, Bog‘i Shamol kabi nomlar bilan atagan. Ushbu an’ana musiqa san’atida ham o‘z aksini topdi.Mo‘g‘ulcha, Qashqarcha, Iroq kabi maqomdan o‘rin olgan atamalar ham shular jumlasidandir.Rak sozi bizning nazarimizda Hindlarning Raga musiqasi nomiga urg‘u berilgan bo‘lishi mumkin.Lekin Saqili Rak-rak asarida Hind ragasi u yoqda tursin, uni eslatadigan birorta alomatlar ham yo‘q.Asl O‘zbek ohanglaridan tashkil topgan go‘zal musiqiy asardir.

**Savti Ushshoq –** Savt so‘zi Arabcha bo‘lib, ohang, musiqa tovushi deganidir. Ayrim manba’larda keltirilishicha aks sado ma’nosida ham keladi, ya’ni u tayyor kuy yoki ashulaga taqlid qilinib, ma’lum bastakorlik qoidalari asosida javob tariqasida yaratilgan musiqiy asardir. Ustoz hofizlarning aytishicha Savtlar o‘tmishda vazmin va ohirroq doira usulida ijro etilgan ekan. Lekin zamon zayliga ko‘ra ular tezlashib, xayotga moslashgan. Savti Ushshoq asari mungli Rost maqomi pardalarida bastalangan va Talqini Ushshoqga nazira qilingan. Ma’lumki, Savtlardan keyin Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufori kabi shahobchalari keladi.

***Talqinchalar haqida:*** Savtlar ijro etilgandan keyin uning talqincha qismiga o‘tiladi. Bu qism o‘zidan oldingi Savtning talqincha doira usulidagi ko‘rinishidir. Ma’lumki Samarqand, Buxoro vohalarida kichikroq narsalar va bolalarni erkalatib ularning nomlanishiga “cha” qo‘shimchasining qo‘shilishi ushbu maqomning nomlanishida ham aks etgan. Demak Talqincha Talqinning kichik ko‘rinishidir. Talqinchalarning doira usuli Talqinning usuliga teskari yangraydi.Bu tinglovchini yanada tetikroq, yanada dadilroq bo‘lishga undaydi.

***Qashqarcha haqida:*** Ma’lumki hozirgi Qashqar qadimda Qo‘qon xonligiga qarashli bo‘lgan. Bu yurtning mashshoqlari o‘zgacha doira usullari bilan shinavandalarning og‘ziga tushganlar.Ular hattoki saroy sozandalari orasida ham alohida e'tiborga ega bo‘lishgan.U davrlarda xonliklar orasida aloqa mustahkam bo‘lib, sozandalar ham bir-birlari bilan tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.Qashqar mashshoqlarining mashxur “Qashqarcha” doira usuli shu tariqa Shashmaqomga kirib kelgan degan tahminlar bor.

***Soqiynomalar haqida:*** Soqiynomalarning doira usuli xalq orasida juda mashxur bo‘lib, unga asosan 4/4 o‘lchovlari bilan notaga olinadi vaengil ijro etiladigan asar bo‘lganligi sababli, yangi shogird maqomchilarning ilk ijro dasturidan o‘rin oladi. Barcha Soqiynomalarni shogirdlar uchun dastak desa ham bo‘ladi. Ma’lumki O‘zbek mumtoz adabiyotida Soqiynoma janri o‘ziga xos o‘rin egallaydi.Yirik shoirlarning devonlarida Soqiynomalar alohida qism sifatida keladi. Shunday she'rlar bilan ijro etilgan ashula yo‘llari ham Soqiynomalar deb ataladi. Soqiynoma deb ataluvchi bu musiqiy asarlarni ishqiy lirik ashulalar desak xato bo‘lmaydi

***Uforilar haqida:*** Musiqiy manba’larda keltirlicha Ufor ma’lum bir doira usulining nomidir. Xalq orasida esa bu nom bilan doira usulidagi sho‘x va yengil kuylarga nisbat berilgan. Xalq kuy va ashula yo‘llarining ufor doira usuli maqomlardagiga nisbatan yengilroq ijro etiladi. Maqomlarda esa u o‘z salobatini saqlab qoladi.

Uforilar ikkinchi guruh sho‘balaridagi alohida qismlarni yakunlab, uning iforini beradi.Go‘yoki yoningizdan bir salobatli, ko‘rkam odam o‘tib ketdiyu,

uning xushbo‘y hidi qolgandek. O‘sha hid, o‘sha ifor bilan uning egasiga baho berish mumkin bo‘lganidek.

Uforilar bor vujudi bilan raqsga yo‘naltirilgan bo‘lib, qadimda raqqoslar bilan birga ijro etilgani ehtimoldan holi emas. Chunki ustozlarning aytishicha maqomdagi ba’zi uforlar aynan raqs uchun yaratilgan.

**Nimcho‘poni** – Ustozlarning fikricha Mo‘gulchai Mirzakarimqulbegining Talqinchasidir. Boshqa ustozlarning ta’kidlashicha Naimcho‘pon, ya’ni bastakorning ismi Naimga qo‘yilgan. Cho‘pon atamasi shu bastakorning kasbi bilan bog‘liq.Qadimgi davrlarda musiqani sozandalar qo‘shimcha qiziqish (xobbi) sifatida ijod etishgan. O‘zi cho‘pon bo‘la turib etuk sozanda bo‘lgan Naim ismli bastakorning nomiga nisbat berilgan bolsa ajab emas. Lekin bizning nazarimizda Nimcho‘poni asari asl Segoh pardalarida bastalangan, talqin doyra usulidagi go‘zal ijodiy namunadir. Dutorda kuy sifatida ham o‘ziga xos jaranglab, tinglaganda ashulasini eshitayotgandek tuyuladi. Biz mazkur asarni talabalar uchun dutor soziga moslab notalashtirdik. Asar dutor sozining o‘ziga xos zablari, bezaklarini chetlab o‘tmagan holda yondashdik. Dutor cholg‘usini to‘liq imkoniyatlarini namoyish etuvchi, ijrochilik mahoratini oshiruvchi kuy sifatida o‘quv qo‘llanmaga kiritishga qaror qildik.

## Savol javob

1 “Norim-norim” so`zinig manosi qanday?
2 Savt usulini aytib bering?
3 “Aliqambar” kuyiga sharx bering?
4 Duchova so`zining ma`nosi?
5 “Dutorim” kuyi qanaqa zarbda chalinadi?
6 “Adolat tanovori” kuyiga shax bering?
7 Tasnif usuli qaysi o`lchovda keladi?
8 Gardun usulini yozib bering?
9 Saqil so`zining ma`nosi?
10 “Saqili Sulton” deb atamishining sababi?
11 Talqincha usuli qanaqa o`lchovda bo`ladi?
12 “Kurd” kuyining manosi aytib bering?
13 “Aliqmbar” kuyi qaysi o`lchovda yozilgan?
14 Shashmaqomning beshinchi maqomi qaysi?
15 Shashmaqomning ikkinchi maqomi qaysi nom bilan ataladi?
16 Shashmaqomda nechta avj bor?
17 “Ilg`or” kuyi qaysi viloyatga mansub?
18 “Dutorim” kuyining muallifi kim?

# ALIQAMBAR

O'zbek xalq kuyi

Ilyos Arabov notalashtirdi






rit.

# ESHVOY

O'zbek xalq kuyi

Turg‘un Alimatov ijrosidan
Ilyos Arabov notalashtirdi

**Tez** ♩ = 240




rit.

# DUCHOVA

O'zbek xalq kuyi

**O'rta tezlikda ♩. = 140**

Ilyos Arabov notalashtirdi




Tez ♩. = 180

# KURD

O'zbek xalq kuyi

Turg'un Alimatov ijro yuli
Ilyos Arabov notalashtirdi




vibr.
vibr.
rit.

# DUTOR BAYOTI

O'zbek xalq kuyi

♩ = 100

Ilyos Arabov notalashtirdi





# ILG'OR

O'zbek xalq kuyi

Ilyos Arabov notalashtirdi





# DUTORIM

Zokirjon Obimov
Ilyos Arabov notalashtirdi




rit.

# QORA DALI

Qoraqalpoq xalq kuyi

Ilyos Arabov notalashtirdi

**O'rta tezlikda ♩. = 70**







# NORIM-NORIM

Xorazm xalq kuyi

**O`rta tez ♩ = 85**

Ilyos Arabov notalashtirdi








Tez ♩ = 100


rit.

# ADOLAT TANOVAR

O'zbek xalq kuyi

Turg'un Alimatov ijro yuli
Ilyos Arabov notalashtirdi




rit.

# SAQILI SULTON

Buzruk maqomidan
M.Ziyayeva ijro yo'li
I.Arabov notalashtirdi




2-xona
Bozgo`y


3-xona
Bozgo`y


4-xona
Bozgo`y



# MUXAMMASI HUSAYNIY

Navo maqomidan
M.Ziyayeva ijro yo'li
I.Arabov notalashtirdi




Bozgo`y
3-xona


Bozgo`y

# SAQILI RAK-RAK

Rost maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi




Bozgo`y
3-xona


Bozgo`y
4-xona


Bozgo`y

# SAVTI USHSHOQ

Rost maqomidan
I.Arabov notalashtirdi







# TALQINCHAI SAVTI USHSHOQ

Rost maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi






rit.

# QASHQARCHAI SAVTI USHSHOQ

Rost maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi





# SOQIYNOMAI SAVTI USHSHOQ

Rost maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi





# UFORI SAVTI USHSHOQ

Rost maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi




rit.

# TASNIFI BUZRUK

Buzruk maqomidan
Ilyos Arabov moslashtordi




Bozgo`y
5-xona
Bozgo`y
6-xona


Bozgo`y
7-xona


Bozgo`y

# GARDUNI BUZRUK

Buzruk maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi

♩ = 100




Bozgo`y

# MUXAMMASI BUZRUK

Buzruk maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi




Bozgo`y
3-xona
Bozgo`y


4-xona
Bozgo`y

# MUXAMMASI NASRULLOI

Buzruk maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi




Bozgo'y
3-xona
Bozgo'y

# SAQILI ISLIMI

Buzruk maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi




3-xona
4-xona


5-xona
6-xona



# NIM CHO`PONI

Segoh maqomidan
Ilyos Arabov moslashtirdi






rit.

## TEST SAVOLLARI:

**1. “Norim-norim” so`zinig manosi qanday?**

a) *Anor terimi marosimi qo`shig`i.

b) Kelin kelganda aytiladigan qo`shiq.

c) Yomg`ir qo`shig`i.

d) Quyosh chiqqanda chalinadigan kuy.

**2. Dutor cholg`usi necha xil sozlanadi?**

a) 5-xil.

b) 2-xil.

c) *3-xil.

d) 4-xil.

**3. Savt usulining kalit o`lchovi qanaqa?**

a) 4/4

b) *5/4

c) 3/4

d) 2/4

**4. Shashmaqomning beshinchi maqomi qaysi?**

a) *Buzruk

b) Rost

c) Iroq

d) Segoh

**5. Maqom so`zining ma`nosi?**

a) Ulug`vor, buyuk

b) Ikki parda oralig`i

c) Oltilik ma`nosini anglatadi

d) *O`rin, joy musiqada lad ma`nolarini bildiradi

**6. “Qo`shtor” kuyida dutor qanday sozlanadi?**

a) *Prima

b) Kvinta

c) Kvarta

d) Tersiya

**7. Shashmaqom necha bo`limdan iborat?**

a) 5 bo`limdan

b) 6 bo`limdan

c) *2 bo`limdan

d) 1 bo`limdan

**8. “Aliqambar” kuyining kalit o`lchovi?**

a) 6/8

b) 5/4

c) *3/4

d) 2/4

**9. Duchova so`zining ma`nosi?**

a) *Ikki cho`p

b) Ovvora

c) Ikki chorvachi

d) ikkinchi

**10. “Dutorim” kuyi qanaqa zarbda chalinadi?**

a) Oddiy zarbda

b) *Teskari zarbda

c) Murakkab zarbda

d) Pirrang zarbda

**11. “Adolat tanovori” qanaqangi davralarda ijro etilgan?**

a) Ayollar davrasida

b) Erkaklar davrasida

c) Bolalar marosimida

d) Yoshlar davrasida

**12. Tasnif usuli qaysi o`lchovda keladi?**

a) 2/4, 4/4

b) 3/4

c) 5/4

d) 6/8

**13. Shashmaqomning ikkinchi maqomi qaysi nom bilan ataladi?**

a) *Rost

b) Buzruk

c) Navo

d) Iroq

**14. Gardun usulini kalit belgisi?**

a) 3/4, 4/4

b) *2/4, 3/4, 3/4

c) 5/4

d) 2/4, 4/4

**15. Muxammas usuli necha taktdan iborat?**

a) *16

b) 24

c) 3

d) 7

**16. Xorazm maqomlari nechta?**

a) 4 ta

b) 6 ta

c) 6 yarimta

d) 7 ta

**17. Sarahborlar qaysi usulda chalinadi?**

a) *Zarbul qadim

b) Talqin usulida

c) Savt usulida

d) Chapandoz

**18. Saqil usuli necha taktdan iborat?**

a) 16

b) *24

c) 20

d) 22

**19. Buzruk maqomida nechta muxammas bor?**

a) 5 ta

b) 3 ta

c) *2 ta

d) 4 ta

**20. “Saqili Sulton” deb atamishining sababi?**

a) *Saqillarning Sultonidir. Bunday martbaning kuylarga berilishi 12 maqomdan qolgan.

b) Sulton tomonidan yaratilgani uchun Sulton atamasi qo`shilgan.

c) Cho`ponning nomiga qo`yilgan.

d) Podshohning nomiga qo`yilgan.

**21. Talqincha usuli qanaqa o`lchovda bo`ladi?**

a) 3/4, 3/8

b) *3/8, 3/4

c) 6/4 (2/4, 4/4)

d) 5/4

**22. Qashqarchalar Shashmaqomning qaysi bo`limida mavjud?**

a) Nasr

b) Mushkulot

c) 3-ch

d) Hech qaysida

**23. Shashmaqomda nechta avj bor?**

a) 3 ta

b) *2 ta

c) 5 ta

d) 4 ta

**24. “Kurd” so`zining manosi ko`rsating?**

a) *Etnik qabilaning nomi

b) Turk so`zining sinonimi

c) Hech qanday ma`nosi yo`q

d) Kuchli degan ma`noni anglatadi

**25. “Aliqmbar” kuyi qaysi qaysi viloyatga tegishli?**

a) Samarqand

b) Buxoro

c) Surxandaryo

d) Xorazm

**26. Mug`ilcha usuli qaysi o`lchovda keladi?**

a) 3/4

b) 6/8

c) *5/4

d) 2/4

**27. Soqinomalar Shashmaqom nasr bo`limining qaysi guruh sho`balariga kiradi?**

a) *2

b) 1

c) 3

d) Hech qaysi

**28. Dutor bayoti boshqa cholg`ularda ham chalinadimi va qaysi cholg`ularda?**

a) Faqat dutorda

b) *Dutorda, rubobda, changda va ansamblda

c) G`ijjakda

d) Nayda

**29. “Ilg`or” kuyi qaysi viloyatga mansub?**

a) Buxoro

b) *Xorazm

c) Farg`ona

d) Qashqadaryo

**30. “Dutorim” kuyining muallifi kim?**

a) Orif Qosimov

b) *Faxriddin Sodiqov

c) Turg`un Alimatov

d) Zohidjon Obidov

# GLOSSARIY

**Applikatura** (nem. Appliccatur, lot. Applico-qo‘ymoq”, bosmoq”) – musiqa cholg‘u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yish va almashtirish tartibi.

**Artikulyatsiya** (nem. Articulation, lot. Articulo – mayda bo‘laklarga bo‘laman”) – musiqa cholg‘u asboblari va ashulachi ovozida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari.

**Abbreviatura** (it. abbreviatura, lot. brevis – qisqa”, nutq yoki yozuvda qisqartirish) – nota yozuvini qisqartirish va o‘ng‘aylashtirish belgilari.

**Auftakt** taktdan oldingi harakat. Ko‘pincha dirijorlarning qo‘l harakatlariga aytilsada, har qanday asar, kichik bir jumla boshlanishidan oldin har qanday ijrochi amalga oshiradigan harakat.

**Doston** so‘zi forscha “qo‘lning davomi”, “barmoqo‘rni”, “parda” degan tushunchalarni anglatadi. Itsilohiy ma’noda esa afsona, rivoyat, ertak, hikoya, poyema degan ma’nolarni bildiradi.

**Dutor** – fors tilidan olingan bo`lib ikki tor ma`nosini anglatadi

**Kadensiya** (it. cadenza, lot. cadere-yig‘ilaman”, tugallanaman”) – tartibli holatda eshitilayotgan musiqaning tugallangan, bir maqsadga kelib to‘xtagani yoki musiqa asarining butunlay tamom bo‘lgani bo‘lib, buni boshqacha kadans deb ham ataladi.

**Musiqiy asar**:  Ma’lum bir musiqiy asar B.Asafev ta’biri bilan aytganda uch xil ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Bu nota matni, ya’ni yozuv asosida.Ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda. Tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan asarning haqiqiy ijro jarayoni.

**Musiqiy ifoda vositalari**:  tovush hosil qilish va uning akutsik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o‘lchov, sur’at, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

**Musiqiy xotira** – inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri, yod olish va xotirada saqlash bo‘lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o‘sha xotiradagilarni ma’lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish-namoyon qilish hisoblanadi.

**Muxammas** – beshlik degan ma`noni anglatadi

**Maqom** – arabchadan “o‘rin”, “joy” degan ma`noni bildirib, musiqada yirik shakldagi musiqiy asarlar majmuasi.

**Nola** – pardani tebrantirish, sayqal berish.

**Ashula** – keng tarqalgan vokal musiqa janri va shakli bo‘lib, unda she’riy va musiqiy obrazlar bir-biriga uyg’unlashgan holda gavdalanadi. Ashulaning xalq va mualliflik turlari mavjud. Ashula tuzilishi va ijrosi bo‘yicha turli janrlarga bo‘linadi . Masalan: ommaviy, etsrada, ansambl, xor va boshqalar.

**Ballada** – (italyancha «ballade») - adabiy-poyetik janr bo‘lib, xalqo‘tmishi haqidagi she’riy qissa. hissa yoki hikoya qilib aytib berish xarakterida yozilgan cholg’u yoki vokal musiqa asari.

**Vals** – (fransuzcha «valse») - ikki birgalikda ohitsa o‘ynaydigan raqs. Musiqa o‘lchovi 3/4 bo‘lib, tez, o‘rtacha tez va vazmin sur’atlarda bo‘ladi.

**Konsert** – (lotincha «concertere» – “musobaqalashmoq”) - simfonik orketsr yoki xalq cholg’u asboblari orketsrining jo‘rligi bilan, yolg’iz bir cholg’u yoki ovoz uchun yirik shaklda yozilgan musiqa asari. Konsert ko‘proq 3 qismdan iborat bo‘lib, 1- qismi – dramatik xarakterda – sur’ati tez, asosan sonata allegrosi shaklida, 2-qismi lirik xarakterli - salmoqli suratda bo‘lsa, 3-qismi – final, tantanali raqs shaklida yoziladi.

**Kashish** – pardani tepaga yoki pastga tortish

**Interval** – oraliq degan ma’noni bildirib, musiqada ikki musiqiy tovush oralig‘iga interval deyiladi. Intervallar garmonik va melodik turlarga bo‘linadi.

**Qo`shtor** – dutorning ikki tori bir xil sozlanadi

# XULOSA

Musiqa – inson ma'naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg'usiga ta'sir etish bilan kishini ma'naviy jihatdan  tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa  san'ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo'naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu o`quv qo`llanmani yozishdan maqsad yosh iste`dod egalarining ustozlar maktablarini davom ettirishlari uchun kerakli maba bo`ladi degan umidimiz bor. Shashmaqomning ashula bo`limidagi ba`zi bir turkumlar, chog`u bo`limidagi ayrim asarlar dutor soziga moslashtirildi. Talabaning nota savodini oshiradi va vaqtini tejaydi. Bir maqom ashulasini dutorga moslashtirib chalish uchun anchagina vaqt ketib qolishi mumkin. Bu nota yozuvlarida esa tayyor dutorga moslashtirilgan. Bir ashulani o`rganish vaqtiga butun boshli turkumni o`rganish imkoniyati bor. Shu sababdan ushbu o`quv qo`llanmani yozishga jazm etdik. Yana ustozlar tomonidan chalingan kuylar nota yozuviga tushurilmaganligi uchun Turg`un Alimatov irilaridagi Kurd, Eshvoy, Adolat tanovori, xalq kuylari Duchava, Norim-norim, Ilg`or, Qora dali kuylari notaga tushurildi. Ustoz Malika Ziyaevadan ham shashmaqom cholg`u kuylari Muxammasi Husayniy, Saqili Sulton, Saqili Islim kuylarini dutorga moslashtirib notaga tushurdik.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston musiqa san'ati ko'p janrli, mazmun jihatdan boy, o'z milliy xarakteriga ko'ra zamonaviy san'atdir, shu bilan birga u o'tmishimizning mustahkam poydevoriga mahkam suyanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. O.Matyoqubov. Maqomot. T., 2004.
2. O.Ibrohimov. Maqomlar. T., 2004.
3. M.Ziyayeva. Dutor. T., 2008.
4. Sh.Matyoqubov. Ijrochilik san’ati tarixi. T., 2016.
5. I.Toshpo‘ltova. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor). T., 2018.

**MUNDARIJA**

Kirish …………………………………………………………………

Dutor ijrochilik tarixiga qisqacha nazar …………………………………

Savol javob………………………………………………………………

Shartli belgilar …………………………………………………………..

Savol javob………………………………………………………………

Aliqambar ……………………………………………………………….

Eshvoy ……………………………………………………………………

Duchova …………………………………………………………………

Kurd ……………………………………………………………………..

Dutor bayoti ……………………………………………………………...

Ilg‘or ……………………………………………………………………..

Dutorim …………………………………………………………………..

Qora dali …………………………………………………………………

Norim-norim ……………………………………………………………..

Adolat tanovvori …………………………………………………………

Tasnifi Buzruk …………………………………………………………...

Garduni Buzruk ………………………………………………………….

Muhammasi Buzruk ……………………………………………………..

Muhammasi Nasrulloi …………………………………………………...

Muxammasi Husayniy …………………………………………………..

Saqili Sulton ……………………………………………………………..

Saqili Islim ……………………………………………………………….

Saqili Rak-rak …………………………………………………………....

Savti Ushshoq …………………………………………………………....

Nimcho‘poni ……………………………………………………….......

Testlar…………………………………………………………………….

Glossariy………………………………………………………………….

Xulosa…………………………………………………………………

Foydalanilgan adabiyotlar……………………………………………

**СОДЕРЖАНИЕ**


Введение ………………………………………………………..……..

Из истории дутарного исполнительства …………………………….

Вопросы и задачи………………………………………………………

Специальные знаки ……………………………………………

Вопросы и задачи………………………………………………………

Аликамбар ……………………………………………………………..

Эшвой ……………………………………………………………

Дучова ……………………………………………………………….

Курд …………………………………………………………………..

Дутор баёти …………………………………………………………...

Илгор …………………………………………………………………..

Дуторим ………………………………………………………………..

Кора дали ………………………………………………………………

Норим-норим ………………………………………………………….

Адолат тановвори …………………………………………………

Таснифи Бузрук ……………………………………………………

Гардуни Бузрук ……………………………………………………….

Мухаммаси Бузрук …………………………………………………..

Мухаммаси Насруллои ……………………………………………

Мухаммаси Хусайний ………………………………………………..

Сакили Султон ……………………………………………………

Сакили Ислим ……………………………………………………

Сакили Рак-рак ………………………………………………………...

Савти Ушшок ………………………………………………………....

Нимчупони ………………………………………………………......

Тесты……………………………………………………………………

Глоссарий………………………………………………………………

Заключение…………………………………………………………….

Использованная литература…………………………………………..

**CONTENT**

Preamble …………………………………………………………………
Is history of dutar permormance ………………………………………..
Questions..........................................................................................
Special sings ……………………………………………………
Aliqambar ……………………………………………………………..
Eshvoy …………………………………………………………………
Duchova ………………………………………………………………
Kurd …………………………………………………………………..
Dutor bayoti …………………………………………………………...
Ilgor …………………………………………………………………..
Dutorim ……………………………………………………………..
Qora dali ……………………………………………………………
Norim-norim …………………………………………………………..
Adolat tanovvori ……………………………………………………
Tasnifi Buzruk ………………………………………………………...
Garduni Buzruk ……………………………………………………
Muhammasi Buzruk ………………………………………………..
Muhammasi Nasrulloi ……………………………………………...
Muxammasi Husayniy ……………………………………………..
Saqili Sulton ………………………………………………………..
Saqili Islim …………………………………………………………
Saqili Rak-rak ……………………………………………………....
Savti Ushshoq ……………………………………………………....
Nimchuponi ……………………………………………………......
Tests...............................................................................................
Glossariy……………………………………………………………
Conclusion…………………………………………………………
Literature........................................................................................